

YOSHLARNI ILM-FANGA OSHNO ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Ashurova Dilbar Davron qizi

ShDPI

Annotatsiya: Zamon yoshlarini ilm-fanga to‘g‘ri yo‘naltirish. Zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishi, talab etilayotgan fanga tegishli bilimlarni mustahkamlash, ega bo‘lgan bilimlarni jamiyatda qo‘llay olishi, o‘z yo‘lini toppish va ilm-fanga o‘z hissasini qo‘shish muhim qadamlardan biridir. Tadqiqotda yoshlarning ilm-fanga qiziqishini pasaytiruvchi asoslar o‘rganilib, ularni bartaraf etish yoshlarga to‘g‘ri va kerakli yo‘lni tanlashdagi to‘siqlar o‘rganilib ularni bartaraf etish bo‘yicha chora tadbirlar o‘rganiladi. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi tahlil qilinadi, ularni mahalliy sharoitga va ijtimoiy hayotimizga moslashtirib, tadbiriq qilish yo‘llari yoritiladi. Maqola so‘nggida yoshlarni ilm-fanga oshno etish, ularga shart-sharoitlar va innovatsion g‘oyalarini tadbiriq qilish uchun qulay muhit yaratib berish ham ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, ilm-fan, innovatsiya, sun‘iy intellect, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy hayot, motivatsiya, mentorlik, startaplar, institutsional.

XXI-asrda ilm-fan taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda ayniqsa yoshlar hayotida ajralmas ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Globallashuv texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va sun‘iy intellect kebi yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi yoshlarni ilm-fanga oshno etishga yanada qiyinchilik tug‘diradi desak mubolag‘a desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero zamonaviy davlatning raqobatdoshligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va innovatsion salohiyati eng avvalo yosh avlodning bilim darajasi ularning ilmiy tadqiqot faoliyatidagi ijtiroki hamda ijodiy tafakkuriga bog‘liqdir. Bugungi kunda ko‘lab mamlakatlarda yoshlarning ilm-fan sohasidagi o‘rni strategic resusr sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda aynan yoshlarni ilm-fanga qiziqishini oshirish, uni rivojlantirish va bayitishda ko‘plab chora tadbirlar olib borilmoqda. Yoshlarga imkoniyat yaratish maqsadida 2019-yilda qabul qilingan “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da yosh tadqiqotchilar uchun grantlar ajratish ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash hamda yosh olimlar uchun mahsus stipendiyalar joriy etish kabi bir qancha muhim vazifalar belgilab berilgan. Yoshlarning ilm fanga qiziqishini oshirish va ularni ilmiy faoliyatga jalb etishda bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Avvalo ta‘lim tizimida ilmiy tadqiqot elementlarini joriy etish, talabalarni amaliy loyihalar va startaplarda fal ishtirok etishga yo‘naltirish ilmiy mentorlik tizimini rivojlantirish hamda grand va stipendiyalar orqali moddiy rag‘batlantirish kabi choralar yoshlarning ilmiy faoliyatidagi faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bundan tashqari zamonaviy raqamli platformalar, onlayn kutubxonalar va xalqaro ilmiy hamkorlik loyihalaridan foydalanish yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Yoshlarning ilmiy tadqiqot daoliyatiga qiziqishi va faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq ko‘lab mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham bu borada bir qator muammolar mavjud. Mazkur muammolarni shartli ravishda quyidagi toifalarga ajratish mumkin: institutsional, moddiy-texnik, motivatsion, psixologik va ijtimoiy omillar:

1. Institutsional muammolar. Ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi tizimli kamchiliklar yoshlarni ilm fanga jalb qilish jarayonida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan: universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida hamkorlikning sustligi. Yoshlar ko‘pincha nazariy bilim olish bilan cheklanib qoladi, amaliy tadqiqot loyihalariga jalb etilish imkoniyati cheklangan. Shu sababli bazi hollarda bu kata muammolarga va yoshlarni ilm-fanga qiziqishini so‘ndirishga olib kelishi mumkin.

2. Moddiy texnik muammolar. Ilmiy faoliyatning samaradorligi moddiy qo‘llab quvvatlanish bilan bevosita bog‘liq. Yosh tadqiqotchilar uchun quyidagi muammolar kuzatiladi. Moddiy rag‘batning sustligi yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlarini qoplay olmasligi ularni o‘z sohasiga loqayd bo‘lib qolishlariga va qiziqishlarini so‘nishiga olib keladi.

3. Motivatsion muammolar. Motivatsiya zamonaviy yoshlarni harakatga undovchi bir ajib ko‘rinishiga ega va ta’kidlashimiz kerakki motivatsiya yoshlarning ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini belgilovchi eng muhim omillardan biri. Ammo bu borada ham yetarlicha muammolar mavjud. Ilmiy faoliyatning ijtimoiy obro‘sining astligi yoshlar orasida ilm-fan bilan shug‘ullanish tijorat sohalariga nisbatan kamroq jozibali bo‘lib qolmoqda. Sababi esa natijalarni taz ko‘rish istagi bo‘lib bunda ilmiy izlanishlar uzoq muddatli va mashaqqatli bo‘lishiga qaramay motivatsion dasturlar yetarli emasligi ko‘zda tutilgan.

4. Psixologik muammolar. Ilmiy izlanishlar ko‘pincha sabr-toqat va mantiqiy tafakurni talab qiladi. Yoshlarni psixologik tayyorgarligi esa bazi hollarda pand berib qo‘yadi. O‘ziga bo‘lgan ishonchsizligi, sabrsizligi, o‘zining imkoniyatlarini va bilimi judayam past baholashi bundan mustasno emas. Mantiqiy tafakkurni oshirishning eng samarali yo‘li esa albatta yoshlarni ilm-u marifat o‘chog‘i bo‘lmish kitob mutoaalasi bilan bog‘liq.

5. Ijtimoiy muammolar. Yoshlarni ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini ijtimoiy muhit ham shakllantiradi. Ota-onalarning e’tiborsizligi. Ko‘plab hollarda ota-onalar farzandlarining ilmiy izlanishlariga emas, moddiy daromad keltiradigan faoliyatga ko‘roq e’tibor qaratadi. Ilmiy yutuqlarning keng targ‘ib qilinmasligi yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan ijobiy qarashlarini cheklaydi. Yoshlarning xalqaro konferensiyalar, ilmiy madaniyatimizni oshiruvchi bir qancha loyihalar ishtiroki cheklanganligi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini asaytiruvchi muammolar kompleks xarakterga ega. Ularni bartaraf etish uchun nafaqat moddiy va institutsional chora tadbirlar, balki mativatsion va psixologik qo‘llab-quvvatlash mehanizmlarini ham kengaytirish zarur. Ilmiy forum va tanlovlar, konferensiyalar, olimiadalar va seminarlar yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishda katta qadamlardan biri bo‘lib hizmat qiladi. Yoshlarni ilm-fanga oshno etishning yana bir yo‘li esa bevosita ularga ham ma’nan ham moddiy ehtiyojlarini qondirish va jamiyatimizda

ilmiy ish yoqlaganlarga alohida ehtirom ko‘rsatish va ishonch berish ham ahamiyatlidir. Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining tayanchidir. Yoshlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etish orqali nafaqat ularning intellectual salohiyati rivojlanadi, balki vatanimizning innovatsion iqtisodga o‘tishi tezlashadi. Shu bois yoshlarni ilm-fanga oshno etish-bugunning emas, balki ertaning ham muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Ilm-fan sohasini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil yangi tahrir.
4. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti: www.minninnovatsion.uz.
5. Jo‘rayev A., Karimov M. “Yoshlar orasida ilmga qiziqishni oshirishning dolzarb masalalari”/ Ilm va taraqqiyot, 2022,
6. Saidov A.X. “Zamonaviy O‘zbekiston yoshlari: muammolar va imkoniyatlar” – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021.